

RESPUBLIKAMIZDA XALQARO TIL SERTIFIKATLARINI OLISHGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ERISHILGAN NATIJALAR

Ergasheva Nigina Elmurod qizi

Shahrisabz davlat

pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada xalqaro til sertifikatlarini olishga bo'lgan ehtiyojlar batafsil ko'rsatiladi. Respublikamizda bu sertifikatlar qay darajada muhim ekani ham yoritiladi. Bu yo'nalishda erishilgan natijalar ham muhokama qilinadi.

Kalitso'zlar: auditoriya, bakalavr, magistratura, soxtalashtirish, sertifikat.

Необходимость получения международных языковых сертификатов в нашей республике и достигнутые результаты

Аннотация: в данной статье подробно показаны потребности в получении международных языковых сертификатов, а также подчеркнута, насколько важны эти сертификаты в нашей республике. Также обсуждаются результаты, достигнутые в этом направлении.

Ключевые слова: аудитория, бакалавриат, магистратура, фальсификация, аттестат.

The need for obtaining international language certificates in our republic and the achieved results

Abstract: this article shows in detail the needs for obtaining international language certificates. It also highlights how important these certificates are in our republic. The results achieved in this direction are also discussed.

Keywords: audience, bachelor's degree, master's degree, falsification, certificate

Hozirgi kunda chet tillariga qiziqish nisbatan ortgan. Bu qiziqish ortgani sari bu yo'nalishdagi sertifikatlar ham ehtiyoj va qiziqish kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng Xorijiy tillarni o'rganish bo'yicha ko'p masalalarga e'tibor qaratildi. Bu sohada bo'lgan ehtiyoj ilmiy va ta'lim sohalaridagi global integratsiya jarayonlarining kuchayishi bilan ortib bormoqda. Bu ehtiyojlarini asosiy asosiy bir nechta sabablarini keltirish mumkin:

-Xalqaro ilmiy hamkorlik: O'zbekiston ilmiy tadqiqotlari va izlanishlari global ilmiy maydonda tan olinishi va qabul qilinishi uchun xorijiy til sertifikatlari zarur. Bu sertifikatlar orqali O'zbekiston ilmiy jamoasi xalqaro hamkorlikka qatnashish va ilmiy ishlanmalarni jahon miqyosida targ'ib qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

-Ilmiy ma'lumotlarning sifatini oshirish: chet tillarini bilish juda ko'p harakat talab etadi. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni xalqaro standartlarga mos ravishda olib borishni ta'minlaydi.

-E'tiborli va mashhur kompaniyalardan ish topish. Xorijiy til va sertifikatiga ega shaxs boshqalarga nisbatan katta o'rinlarda turadi. Shunga yarasha mashhur va shunga o'xshash kadrlarga ehtiyoji bo'lgan kompaniyalardan ish o'rinlari taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuniga muvofiq xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasi belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxati ilovaga ko'ra tasdiqlansin.

Bundan ko'rinib turibdiki mamlakatimiz bu yo'nalishga befarq emas. Bu yo'nalishda talabgorlar uchun bir nechta imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Ba'zi bakalavr yo'nalishlariga hujjat topshirgan va chet tilini bilish to'g'risidagi milliy sertifikati va xorijiy sertifikati bo'lgan abituriyentlarga maksimal ball beriladi.

Magistratura mutaxassislariga hujjat topshirgan milliy sertifikati va xorijiy sertifikatning ma'lum bir darajasi bo'yicha belgilangan maksimal ball taqdim etiladi.

Sertifikatlar olish bir necha qiyinchiliklar va harakatni talab qiladi. Ammo bu sertifikatni qo'lga kiritganidan so'ng sertifikat egasiga bir necha yengilliklar paydo bo'ladi. Ya'ni oliy ta'lim muassasalariga kirishda maksimal darajada ball beriladi. Bu esa nafaqat yurtimiz balki xorijiy ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatini beradi.

Mashhur til sertifikatlaridan biri IELTS (International English Language Testing System) hisoblanadi. Bu sertifikat ingliz tilida bo'ladigan imtihonlardan iborat. Bu sertifikat nafaqat mamlakatimiz balki xorijiy davlatlarda ham katta obro'ga ega hisoblanadi. Yurtimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha olib borgan bir necha samarali harakatidan so'ng nafaqat bu sertifikati oluvchilar soni balki top ball to'qqiz balini oluvchilar yanada oshdi. Bu quvonarli natija esa albatta yurtimizda o'rganuvchilarga qaratilgan e'tibor tufayli yana yangilana boshladi. Yana bir foydali xorijiy til sertifikati bu CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) hisoblanadi. Bu sertifikat ko'proq abituriyentlar orasida keng tarqalgan bo'lib oliy ta'lim muassasalariga kirishda maksimal ball taqdim etadigan sertifikat hisoblanadi. Milliy sertifikat-bu sertifikat ham abituriyentlar va o'qituvchilar orasida juda mashhur bo'lgan sertifikatlardan biri. Negaki bu sertifikat ona tili va adabiyot fanidan maksimal ball to'plashga yordam beradi. Respublikamizda xorijiy tillarni o'rgatishda bir necha samarali jarayonlar amalga oshirilgan. Bu samarali jarayonlar natijasida oxirgi yillarda nafaqat milliy balki chet tillari bo'yicha sertifikatlarni olib yurtimiz bayrog'ini yuqoriga ko'tarish sharafiga loyiq ko'rilganlar ham ortib bormoqda. Bu natijalarni eshitib xursan bo'lish bilan birga savol ham tug'ilishi tabiiy. Natijalar soxta emasmi? Sertifikatga halol yo'l bilan erishilganmi? va shunga o'xshash savollar ketma-ketligi yuzaga chiqadi. Bularni umumiy lashtirib bir savolni paydo qilish mumkin Sertifikatlarni ham soxtalashtirsa ham bo'ladimi? Bu savol og'riqli albatta. Ba'zi qo'shtirnoq ichidagi shaxslar bu usuldan foydalanib daromad qilishga intilmoqda. Bu soxtalashtirish ishlaridan ham foydalanganlar kam emas. O'z bilimini ishlatish o'rniga soxtalikni afzal ko'radigan shaxslarga va ularni qo'llaydigan insonlarga ham ma'muriy jazolar taqdim etilgan. Bu soxtalashtirishlarni oldini olish uchun maxsus dastur yaratilgan bo'lib, siz unga o'z sertifikatingiz shriftini kiritib

natijani bilishingiz, natijalar haqiqiy ekanligini tekshirishingiz mumkin. Agar natija soxtalashtirilgan bo'lsa dastur tezda xabar beradi. Shu tarzda mamlakatimiz kelajagi bir necha qalbakilashtirilgan va soxta hujjatlardan halos bo'lish baxtini sertifikat nomzodlariga taqdim etadi. Bu qulayliklar va bu sharoitlar hozirgi kunda ko'plab davlatlarda mavjud emas.

Xulosa: yurtimizda chet tillariga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj har yili kuchaytirilmoqda. Maxsus ishlangan dasturlarda esa o'rganuvchilarga sharoit yaratish uchun o'quv markazlari, o'quv kurslari tashkil etildi. Bu esa til o'rganishga ehtiyoji bo'lgan bir necha o'rganuvchilarga bir qator yengilliklar va yangiliklarni taqdim etdi. Bu imkoniyatlardan foydalanib katta natijalarni qo'lga kiritgan insonlar ham yo'q emas. Sertifikat egalariga oliy ta'lim muassasalariga kirishda maksimal ball taqdim etiladi. Bu esa ularni boshqa bir yangi til o'rganish va yangi sertifikatlarni qo'lga kiritib yurtimiz sharafiga ko'tarish baxtiga musharraf etadi. Respublikamizda sertifikat testlarini shaffof o'tqazish bo'yicha ham kerakli tadbirlar o'tkazilgan va natijalarni soxtalashtirish ishlariga barham bermoqda. Bu sharoitlar va imkoniyatlar hamma davlatda ham mavjud emas. Biz O'zbekiston yoshlari esa bu imkoniyatlardan to'g'ri foydalangan holda yurtimiz bayrog'ini yuqoriga ko'tarishimiz va xalqaro global jarayonlarda o'z o'rnimiz bo'lishini ham ta'minlamogimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://w.w.w.lex.uz>.
2. <https://w.w.w.yuz.uz.news>.
3. <https://w.w.w.kun.uz>.
4. <https://w.w.w.cyberleninka.uz>.
5. <https://w.w.w.yoshlarovozi.uz>.
6. <https://w.w.w.ta'liminfo.uz>